“O‘ZBEKISTONDA TURIZMNING MADANIY IDENTIKLIKKA TA’SIRI: SOTSIOLOGIK TAHLIL”	1028
Alijonova Nargiza Rashidjon qizi	
STATISTICAL ANALYSIS OF CREDIT INTEREST RATES.....	1034
Abdullayev Shakhobiddin Shamsiddinovich	
QISHLOQ XO‘JALIGIDA LOGISTIKA XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH METODLARI VA SAMARALI TA‘MINOT ZANJIRI MODEL.....	1037
Olimova Bahora Shuxratovna	
INNOVASION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHINING NAZARIY JIHATLARI.....	1042
Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT BAZASI BARQARORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMIL SIFATIDA FOIZ SIYOSATI VA UNING AMALIY JIHATLARI.....	1047
Axmedova Dilafruz Elshodovna	
B2BDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBALAR.....	1053
Abdubotirova Madinaxon	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИННОВАЦИОННО - ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ.....	1059
Баходирова Хилола Баходировна	
RAQOBATBARDOSH MAHSULOT ISHLAB CHIQRISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYASIDAN FOYDALANISH.....	1063
Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, Abdurazakova Diyora	
ENERGIYA XARAJATLARINI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY SAMARASI.....	1070
Urmanbekova Iroda Farxodovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF REMOTE BANKING SERVICES IN THE CONTEXT OF BANKING TRANSFORMATION	1075
Jabborov Bahriddin Rashidovich	
MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY-XO‘JALIK FAOLIYATINI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH TARTIBI.....	1079
G‘ofurov Iskandar Abduraxmonovich	
BANKLARNING INVESTITSIYA RISKLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	1084
Yuldashev Erkin Xusanovich	
MA’LUMOTLAR BAZASINING RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAGI AHAMIYATI.....	1090
Maxamadiyev M. M.	
УСТОЙЧИВОСТЬ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ: АНАЛИЗ СТРАТЕГИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ АКИБ «ИПОТЕКА-БАНК» ПОСЛЕ ВХОЖДЕНИЯ В ОТП GROUP.....	1095
Каримова Нуржахон Олим кизи	
O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM MUASSASALARIGA XORIJLIK TALABALARNI JALB ETISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1101
Sharopova Nafosat, Xolmamatov Diyorbek	
DAVLATNING IJOBIY IMIJINI YARATISHDA TURIZM VA XALQ DIPLOMATIYASINING STRATEGIK O‘RNI	1108
Kasimova Zilola G‘ulomiddin qizi	
JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUASSASALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	1116
Toshmurodov Abdurauf Ravshanovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ТОПЛИВНО-ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА УЗБЕКИСТАНА – 2025.....	1122
Ш.К.Жалилов	
“O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING O‘RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI”	1126
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
MAMLAKATDA INVESTITSIYA JARAYONLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1130
Xusanov Durbek Nishanovich	
TURIZM XIZMATLARI TUSHUNCHASI VA ULARNI INNOVATSION TASHKIL ETISHNING IQTISODIY MOHIYATI.....	1138
Najmidinov Azizbek Bahrom o‘g‘li	



MINTAQAVIY IQTISODIYOTDA TURISTIK INFRATUZILMANI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI.....	1143
Xalmirzayev Axmadjan Axunovich, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
O'ZBEKISTONDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING HOLATI VA TENDENSIYALARI.....	1149
Ahmedov Shermuhammad Omonjon o'g'li	
MARKETING KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	1156
Akramov Toxir Abdiraxmanovich	
SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1161
Adashev Azimjon Urinboyevich	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1165
Abdunazarova Dilshoda Akromovna	
INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISHDA BOSHQARUV HISOBİ AXBOROTINING AHAMIYATI	1170
Xushvaqtova Nozanin Nurbek qizi	
OLIY TA'LIM TIZIMIDA INTEGRATSIYA JARAYONLARINI AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI VA ULARNING TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDAGI AHAMIYATI.....	1177
Ismoilova Feruza Kubaymurodovna	
EKOMARKETING STRATEGIYALARI ORQALI BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISH	1182
Qo'ziyev Jaloladdin Alisher o'g'li	
ENSURING INNOVATIVE ECONOMIC SECURITY IN THE KHOREZM REGION: WASTE RECYCLING AND CIRCULAR ECONOMY	1186
Madraximova Shohista Bahrom qizi	
KICHIK BIZNES FAOLIYATINI BAHOLASH ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1191
Mavkulov Ravshan Nematjonovich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA ISLOM MOLIYASINI JORIY QILISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJIRIBASIDAN FOYDALANISH.....	1195
Sultonov Baxtiyor Baxodirovich	
MINTAQAVIY IMIJNI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	1201
Duschanov Alisher Sherzod o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI	1206
Opaev Bysen Aymanovich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KICHIK BIZNESNI INVESTITSION KREDITLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH.....	1212
Yuldashev Fozil Turapovich	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJIRIBASI.....	1218
M.M.Muminova	
ИНТЕГРАЦИОННОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ОПЕРАТОРА И ПРЕДПРИЯТИЙ МЕСТНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1223
Худаярова Мехрангиз Мурадовна	
TURIZMDA INDIVIDUALLASHTIRILGAN XIZMATLAR KONSEPSIYASI VA TAJRIBA TURIZMINING NAZARIY ASOSLARI.....	1230
Raxmatov Aziz Tolipovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK EKSTERNALIYALARNI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1235
Smaylova Zarafshan	
XALQARO STANDARTLARDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1239
Abdunazarov Dilshoda Akromovna	



METALLURGIYA SANOATIDA EKOLOGIK TOZA TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH: MAQSADGA MUVOFIQLIGI VA NATIJALARI	1244
Karimov Ma'ruf Ixtiyorovich	
HUDUDIIY IQTISODIY O'SISH OMILLARINING EKONOMETRIK TAHLILI: SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA	1248
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Normurodov Asliddin Alijon o'g'li	
INDUSTRIAL RIVOJLANISHNING IQTISODIY VA EKOLOGIK OQIBATLARI	1258
Ataniyazova M.B.	
OLIY TA'LIM RAQOBATBARDOSHLIGINING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI ROLI	1263
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
СИСТЕМА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК КЛЮЧЕВОЙ ЭЛЕМЕНТ ФОРМИРОВАНИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭКОНОМИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1269
Махмудходжаева Луиза Сайфуллоевна	
IQTISODIYOTDA "YASHIL" MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI	1274
Risqibekova Nozimaxon	
THE ROLE OF DIGITAL MARKETING IN BOOSTING TOURISM-RELATED BUSINESSES	1280
Farrukh Mamadiyrov Shukhratovich	
MINTAQA IQTISODIY BARQARORLIGINI BAHOLASH INDIKATORLARI VA USLUBLARI	1284
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich	
MAJOR INFLATIONARY FACTORS IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN AND ANTI-INFLATION POLICIES	1290
Koshanov Abdimurat Azat uli, Oralbaeva Diana Mukhit qizi	
ЦИФРОВАЯ ЭКОСИСТЕМА СОВРЕМЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА: МОДЕЛИ, МЕХАНИЗМЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ	1296
Бекова Азиза Алимовна	
SOLIQ MAJBURIYATLARINI HISOBGA OLISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1301
Abdullayev Abror Bozarboyevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AKSIZ SOLIINING FISKAL VA IJTIMOIIY ROLI	1308
Abdulxayeva Shaxnoza Muxammadiyevna	
MINTAQAVIIY IQTISODIYOTDA AGROTURIZMNI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI	1314
Egamberdiyeva Umriniso Tursunqulovna, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
OLIY TA'LIMDAGI RAQAMLI YECHIMLARNING SAMARADORLIGI VA UNI BAHOLASH MEZONLARI	1320
Abduraxmanova Malika Abdujaparovna	
SURXONDARYO VILOYATI SHAROITIDA AKVAPARK VA SUZISH HAVZALARI QURILISHINI TAHLIL QILISH HAMDA TAVSIYALAR BERISH	1326
Olimjonov Firdavs	
FISKAL FEDERALIZM NAZARIYASI VA UNING AMALIY AHAMIYATI	1332
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Alijonov Ahadjon Hasanboy o'g'li	
OILAVIIY MUHITDA QIZLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOIIY PEDAGOGIK YONDASHUV (O'ZBEKISTONDA)	1336
Qayimova Maftuna Tursunovna	
«YASHIL IPOTEKA» AMALIYOTI: XORIJIY TAJRIBALAR	1340
Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРОЦЕССОВ ПРИНЯТИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА. ФОРМИРОВАНИЕ НОВОЙ ПАРАДИГМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ	1344
Бурханова Шахноза Бобировна	
QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI KENGAYTIRISH MASALALARI	1353
Abduvoxidova N.G'., Karimova A.M.	
ISHLAB CHIQARISHNI DIVERSIFIKATSIYA ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ASOSIIY MECHANIZMLARI	1359
Mirzarayimova Feruza Zokirjon qizi, Levakov Izzatulla Nematillayevich	



TO'G'RI SOLIQLARNI UNDIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI	1365
Xo'jaqulov Ramshid Yunusovich	
O'ZBEKISTONDA BANK TIZIMINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	1372
Kasimova Zilolaxon Botir qizi	
INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISHNING IQTISODIY MAZMUNI VA TAMOIYILLARI	1379
Gafurov Ma'ruf Xakimovich	
KREDIT RISKI VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	1383
Karimova Shohida Zaylobiddinovna	
SURXONDARYO VILOYATI TUMANLARINING IQTISODIY MODERNIZATSIYASI: ASOSIY OMILLAR VA TENDENSIYALAR.....	1389
Qosimova Nodira Saidovna	
BUXORO VILOYATIDA YASHIL AGROTURIZM KONSEPSIYASINI SHAKLLANTIRISH	1395
Umurov J.	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA DAROMADLAR VA ULARNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI.....	1403
Ostonaqulova Gulchehraxon Muhammadyoqub qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNESNING EKSPORT SALOHIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	1409
Raxmatullayev Umarbek Ulug'bekovich	



MINTAQADA KICHIK BIZNESNING EKSPORT SALOHIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI



Raxmatullayev Umarbek Ulug'bekovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
To'rtko'l fakulteti, katta o'qituvchi
Urganch davlat universiteti, mustaqil izlanuvchisi
E-mail: raxmatullayevumarbek@gamil.com
ORCID: 0009-0006-8506-5437

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqada kichik biznes subyektlarining eksport salohiyati samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi hududlarining eksport ko'rsatkichlari tahlil qilinib, kichik bizneslarning xalqaro bozorlarga chiqishdagi asosiy to'siqlar va ularni bartaraf etish yo'llari aniqlangan. Maqolada ekonometrik modellashirish usullaridan foydalanilgan holda eksport salohiyatiga ta'sir etuvchi omillar baholangan va mintaqaviy eksportni rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik bizneslarning eksport faoliyatini rag'batlantirish uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlash, raqamli marketing strategiyalari va logistika infratuzilmasini takomillashtirish zarur. Shuningdek, davlat tomonidan ko'rsatiladigan eksportni rivojlantirish dasturlari samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, eksport salohiyati, mintaqa iqtisodiyoti, raqobatbardoshlik, ekonometrik model, davlat qo'llab-quvvatlashi, xalqaro bozor, innovatsion texnologiyalar.

Abstract. This article examines the priority directions for improving the efficiency of export potential of small business entities in the region. The study analyzes export indicators of the regions of the Republic of Uzbekistan, identifies the main barriers to small businesses entering international markets, and determines ways to overcome them. The article evaluates factors affecting export potential using econometric modeling methods and develops scientifically grounded recommendations for regional export development. The research results show that financial support, digital marketing strategies, and improvement of logistics infrastructure are necessary to stimulate the export activities of small businesses. Additionally, practical proposals have been made to increase the effectiveness of export development programs provided by the state.

Key words: small business, export potential, regional economy, competitiveness, econometric model, government support, international market, innovative technologies.

Аннотация. В данной статье исследуются приоритетные направления повышения эффективности экспортного потенциала субъектов малого бизнеса в регионе. В исследовании проанализированы экспортные показатели регионов Республики Узбекистан, выявлены основные барьеры выхода малого бизнеса на международные рынки и определены пути их преодоления. В статье оценены факторы, влияющие на экспортный потенциал, с использованием методов эконометрического моделирования, и разработаны научно обоснованные рекомендации по развитию регионального экспорта. Результаты исследования показывают, что для стимулирования экспортной деятельности малого бизнеса необходимы финансовая поддержка, стратегии цифрового маркетинга и совершенствование логистической инфраструктуры. Также представлены практические предложения по повышению эффективности государственных программ развития экспорта.

Ключевые слова: малый бизнес, экспортный потенциал, региональная экономика, конкурентоспособность, эконометрическая модель, государственная поддержка, международный рынок, инновационные технологии.



KIRISH

Zamonaviy globallashtirish sharoitida kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirish mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida 28-maqсад sifatida respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026-yilda eksport hajmini 30 milliard AQSh dollariga yetkazish vazifasi belgilangan. Mazkur vazifalarni izchil amalga oshirish natijasida mintaqalar eksport salohiyatini rivojlantirish respublikamiz iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Kichik biznes korxonalari iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismini tashkil etib, ularning innovatsion imkoniyatlari hamda jahon bozorida raqobatbardoshlik salohiyati yuqori darajada baholanadi [1]. Biroq eksport faoliyati sohasida ko'plab kichik korxonalar o'z imkoniyatlaridan to'liq va samarali foydalana olmayapti. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes subyektlari tomonidan eksportning 30-40 foizi amalga oshirilsa, O'zbekistonda ushbu ko'rsatkich 29 foizni tashkil etadi [2]. Bu holat mazkur sohada mavjud muammolarni chuqur o'rganish va ularni bartaraf etish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqotning maqsadi mintaqalarda kichik biznes korxonalarining eksport salohiyati samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash hamda ular bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Mazkur tadqiqot O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun alohida ahamiyat kasb etadi, chunki kichik biznesni rivojlantirish eksport salohiyatining oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatib, barqaror iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi [3].

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat: birinchidan, mintaqalar kesimida kichik biznes subyektlarining eksport ko'rsatkichlarini tahlil qilish; ikkinchidan, eksport salohiyatini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik usullar yordamida baholash; uchinchidan, kichik biznes korxonalarining xalqaro bozorlarga chiqishida yuzaga kelayotgan asosiy to'siqlarni aniqlash; to'rtinchidan, eksport salohiyatini oshirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes subyektlarining xalqarolashuvi va eksport faoliyati masalalari xorijiy hamda mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Chet ellik tadqiqotchilarning tizimli tahlillarida so'nggi 20 yillik ilmiy izlanishlar natijalari umumlashtirilib, kichik va o'rta biznes subyektlarining xalqarolashuvi uchta asosiy bosqichdan iborat ekanini ta'kidlanadi: dastlabki omillar, jarayonlar va natijalar [4]. Mazkur tadqiqotlarda kichik biznes korxonalari yirik korxonalarga nisbatan moliyaviy, moddiy-texnik hamda inson resurslari jihatidan cheklangan bo'lgani sababli eksport faoliyatida ko'proq qiyinchiliklarga duch kelishi qayd etiladi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlarining eksport faoliyatidagi asosiy to'siqlar qatoriga moliyaviy resurslarning yetishmasligi, xalqaro bozorlar to'g'risidagi axborotlarning cheklanganligi hamda marketing imkoniyatlarining sustligi kiradi [5]. Shuningdek, logistika va taqsimot tizimlarining rivojlanmaganligi global ta'minot zanjirlariga integratsiyalashuvni murakkablashtiruvchi muhim omil sifatida ko'rsatiladi.

Mamlakatimiz olimlari kichik biznesning eksport salohiyatini oshirishda jahon tajribasini o'rganish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda raqamli marketing vositalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlab kelmoqdalar [6]. Xususan, Raximov T.J. mintaqalar eksport salohiyatini ekonometrik baholash bo'yicha tadqiqotlar olib borib, eksport salohiyatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va prognozlashda turli ekonometrik modellardan foydalanish zarurligini ilmiy jihatdan asoslagan [7]. Nosirova N.J. esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini tahlil qilib, davlat tomonidan moliyaviy va huquqiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqqan [8].

Tadqiqotchilar kichik biznes korxonalari eksport salohiyatini oshirish yo'llari va strategiyalarini o'rganib, raqamli marketing, onlayn savdo platformalari hamda davlat dasturlaridan foydalanishning yuqori samaradorligini isbotlaganlar [9]. Shu bilan birga, O'zbekiston eksportini diversifikatsiya qilish tendensiyalarini tahlil qilish asosida eksport tarkibi va geografiyasini kengaytirish zarurligi asoslab berilgan [10].

Mazkur tadqiqotda statistik tahlil, solishtirma tahlil, kontent-tahlil hamda ekonometrik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Ma'lumotlar bazasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy ma'lumotlari, mavjud ilmiy adabiyotlar hamda normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ekonometrik modellashtirish uchun mintaqaviy eksportning ko'p omilli ekonometrik modellari qo'llanildi. Bu modellar mintaqalar o'rtasidagi farqlarni aniqlash va eksport dinamikasini prognoz qilish imkonini berdi. Tadqiqotda quyidagi formuladan foydalanildi:



$$Y_{ef} = Y_{ep} \times M_1 \times M_2 \times M_3 \times M_4 \times M_5$$

Bu yerda:

Y_{ef} – mamlakatdan eksport qilinadigan mahsulot hajmining haqiqiy qiymati;

Y_{ep} – eksport salohiyatining joriy qiymati;

M_1 – xom ashyo salohiyatini namoyish qiluvchi multiplikator;

M_2 – ishlab chiqarish va texnologik imkoniyatlarni namoyish qiluvchi multiplikator;

M_3 – boshqaruv imkoniyatlarini namoyish qiluvchi multiplikator;

M_4 – global bozor hajmlari dinamikasini ko'rsatadigan multiplikator;

M_5 – raqobatchilarning qarshilik kuchini ko'rsatadigan multiplikator.

Iqtisodiy ko'rsatkichlarning hududlar bo'yicha xususiy indeksleri va integral indekslarini hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalanildi:

$$A_{ij} = x_{ij} / y_j$$

Bu yerda:

x_{ij} – i-hudud j-ko'rsatkichning aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi hajmi;

y_j – Respublika bo'yicha j-ko'rsatkichning aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi hajmi;

A_{ij} – i-hudud j-ko'rsatkich indeksi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda O'zbekiston Respublikasi jami eksport hajmi 24426,2 mln AQSh dollariga yetdi [2]. O'tgan yilga nisbatan bu ko'rsatkich 23,8 foizga o'sdi. Shunday bo'lsada, tashqi savdo balansi manfiy bo'lib, -13715,0 mln dollarni tashkil etdi. Mamlakat jahonning 198 davlati bilan savdo aloqalarini olib bormoqda. Eng ko'p tashqi savdo aylanmasi Xitoy (21,9%), Rossiya (15,8%), Qozog'iston (7%), Turkiya (5%) va Janubiy Koreya (3,7%) davlatlariga to'g'ri keladi [10].

Kichik biznes korxonalari tomonidan 2023-yilda 7092,1 mln AQSh dollariga teng bo'lgan mahsulot eksport qilindi, bu jami eksportning 29,0 foizini tashkil etdi [2]. Bu ko'rsatkich o'tgan 2022-yildagi 6,2 mlrd AQSh dollarga teng bo'lgan eksport hajmiga nisbatan 23,8 foizga o'sdi.

1-jadval. O'zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlarga eksporti ko'rsatkichlari (2022-2023-y)

No	Davlatlar	2022, mln \$	2023, mln \$	O'sish 2022,%	O'sish 2023,%	O'rin 2022	O'rin 2023
1	Rossiya	348,2	454,0	154,4	130,4	1	1
2	Turkiya	237,8	222,7	109,8	93,7	3	2
3	XXR	324,1	183,6	113,0	56,7	2	3
4	Qozog'iston	143,0	157,8	94,1	110,3	4	4
5	Qirg'iziston	116,5	129,1	127,6	110,8	5	5
6	Afg'oniston	103,3	109,3	94,6	105,9	6	6
7	Tojikiston	65,0	70,5	120,2	108,4	7	7
8	Fransiya	2,1	60,3	115,8	28,8	40	8
9	Pokiston	10,4	30,3	71,3	291,3	18	9
10	BAA	14,9	29,3	2,5	196,6	12	10

Hududlar kesimida eksport ko'rsatkichlarini tahlil qilsak, eng ko'p eksport Toshkent shahriga (4964,5 mln dollar), Toshkent (1858,2 mln dollar) va Andijon (1157,9 mln dollar) viloyatlariga to'g'ri kelishini ko'ramiz [2]. Aholi jon boshiga eng ko'p eksport miqdori Toshkent shahrida (1632,6 dollar), Toshkent viloyatida (608,9 dollar) va Navoiy viloyatida (602,7 dollar) qayd etilgan. Eng past eksport indeksi Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlarida kuzatildi.

2-jadval. Hududlar kesimida kichik biznes korxonalari tomonidan eksport qilingan tovarlar (2023-yil)

No	Hududlar	Jami eksport (mln \$)	Hudud ulushi (%)	Aholi jon boshiga (\$)	Indeks
1	O'zbekiston Respublikasi	7092,1	29,0	19,3	1,0
2	Qoraqalpog'iston Respublikasi.	93,6	27,6	4,7	0,2
3	Andijon viloyati	338,0	29,2	10,0	0,5
4	Buxoro viloyati	134,3	45,9	6,6	0,3
5	Jizzax viloyati	75,4	43,5	5,0	0,3



6	Qashqadaryo viloyati	94,6	22,2	2,7	0,1
7	Navoiy viloyati	58,5	9,0	5,4	0,3
8	Namangan viloyati	229,1	41,0	7,5	0,4
9	Samarqand viloyati	315,8	42,3	7,5	0,4
10	Surxondaryo viloyati	157,6	72,4	5,5	0,3
11	Sirdaryo viloyati	211,3	63,4	23,1	1,2
12	Toshkent viloyati	603,8	32,5	19,8	1,0
13	Farg'ona viloyati	464,3	68,4	11,4	0,6
14	Xorazm viloyati	190,4	64,2	9,5	0,5
15	Toshkent shahri	1197,6	24,1	39,4	2,0

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, hududlarning jami eksportida eng katta ulushga ega bo'lgan hududlarga Surxondaryo (72,4%), Farg'ona (68,4%) va Xorazm (64,2%) viloyatlarini kiritish mumkin [2]. Biroq, bu viloyatlarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan eksport miqdori past bo'lib, bu esa kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan to'liq foydalanilmayotganini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, kichik bizneslarning eksportga chiqishdagi asosiy to'siqlari quyidagilardan iborat [1, 5, 9]:

moliyaviy resurslarning cheklanganligi – kichik bizneslar xalqaro bozorlarga kirish uchun zarur bo'lgan investitsiyalarni jalb qila olmaydi;

xalqaro bozorlar haqidagi ma'lumotlarning yetarli emasligi – xorijiy bozorlarga oid ishonchli va arzon ma'lumotlarning yetishmasligi;

samarasiz marketing faoliyati – raqamli marketing va brend yaratish imkoniyatlarining cheklanganligi;

logistika tizimlarining zaifligini – global ta'minot zanjirlariga integratsiyani qiyinlashtiradi;

huquqiy va ma'muriy to'siqlar – eksport qilish uchun zarur bo'lgan ruxsatnomalar va sertifikatlar olishning murakkabligi.

1-rasm. Kichik bizneslarning eksportga chiqishdagi asosiy to'siqlari

3-jadval. Eksport salohiyatini oshirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar va ularning xususiyatlari

№	Omil turi	Xususiyatlari	Ta'sir darajasi
1	Moliyaviy omillar	Kredit olish qiyinligi, yuqori foiz stavkalari, kapital yetishmasligi	Yuqori
2	Axborot omillari	Xalqaro bozorlar to'g'risidagi ma'lumotlar kamligi	Yuqori
3	Marketing omillari	Raqamli marketing ko'nikmalari yetishmasligi	O'rta
4	Logistika omillari	Transport infratuzilmasi zaifligini, yetkazib berish xarajatlari	Yuqori
5	Institutsional omillar	Ma'muriy to'siqlar, sertifikatsiya muammolari	O'rta
6	Texnologik omillar	Zamonaviy texnologiyalar joriy etilmaganligi	O'rta
7	Inson resurslari	Malakali kadrlar yetishmasligi	O'rta

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan to'liq foydalanilmayapti. Hududlar kesimida katta farqlar mavjud bo'lib, ba'zi viloyatlarda aholi jon boshiga eksport ko'rsatkichi respublika o'rtachasidan ikki baravar past. Bu holat bir qator omillar bilan bog'liq: moliyaviy imkoniyatlarning cheklanganligi, axborot yetishmasligi va logistika infratuzilmasining zaifligini [7].



Olimlarning ta'kidlaganidek, kichik bizneslar yirik korxonalarga nisbatan xalqaro bozorlarga chiqishda ko'proq qiyinchiliklarga duch keladi [4]. Biroq, ularning moslashuvchanligi va innovatsion salohiyati yuqori bo'lganligi sababli, to'g'ri strategiyalar qo'llanilsa, eksport faoliyatida sezilarli natijalarga erishish mumkin.


Raqamli texnologiyalar va onlayn savdo platformalaridan foydalanish kichik bizneslar uchun yangi imkoniyatlar ochadi [9]. Amazon, eBay va Alibaba kabi platformalar orqali faoliyat yuritish eksport hajmini oshirishga bevosita ta'sir qiladi. SEO va ijtimoiy tarmoqlarda brend tanitish, bloglar orqali mahsulotlar haqida ma'lumot berish samaradorligi tadqiqotlarda ta'kidlangan [1].

Davlatning kichik bizneslarni eksportga yo'naltirishdagi roli ham muhim omil hisoblanadi [8]. Moliyaviy yordam, xususan kreditlar va grantlar, kichik bizneslar uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Soliq imtiyozlari va boshqa moliyaviy rag'batlar ularni xalqaro bozorlarda mustahkam o'rin egallashlariga yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mintaqalarda kichik biznes subyektlarining eksport salohiyati samaradorligini oshirish uchun kompleks yondashuv zarur. O'tkazilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi: birinchidan, kichik biznes subyektlari jami eksport hajmining 29 foizini tashkil etib, ushbu ko'rsatkichni oshirish uchun sezilarli imkoniyatlar mavjud; ikkinchidan, hududlar kesimida eksport ko'rsatkichlari o'rtasida jiddiy farqlar kuzatilmoqda, ayrim viloyatlarda eksport salohiyatidan yetarli darajada samarali foydalanilmayapti; uchinchidan, kichik biznes subyektlarining eksport faoliyatiga chiqishida moliyaviy, axborot va logistika omillari bilan bog'liq to'siqlar asosiy muammolar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:



2-rasm. Mintaqada kichik biznesning eksport salohiyati samaradorligini oshirish takliflari

Ushbu takliflarni amalga oshirish orqali mintaqada kichik biznesning eksport salohiyati samaradorligini sezilarli darajada oshirish va mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mo'minova K.Y. Kichik biznes korxonalari uchun eksport salohiyatini oshirish yo'llari va strategiyalar // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2025. № 4. B. 1714-1718.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Ijtimoiy-iqtisodiy holat to'g'risidagi rasmiy ma'lumotlar. Toshkent, 2023-2024.
3. Kambarova Sh.M. O'zbekistonda innovatsiya jarayonlari rivojlanishi sharoitida kichik biznesning eksport salohiyatini oshirish: monografiya. Toshkent, 2023. 144 b.
4. Steinhauer V.P.S., Paula F., Macedo-Soares T. Internationalization of SMEs: A systematic review of 20 years of research // Journal of International Entrepreneurship. 2020. Vol. 18. P. 1-38.
5. Paul J., Parthasarathy S., Gupta P. Exporting challenges of SMEs: A review and future research agenda // Journal of World Business. 2017. Vol. 52. P. 327-342.



6. Kambarova Sh.M. Kichik biznesning eksport salohiyatini oshirishda jahon tajribasi. Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2019.
7. Raximov T.J. Mintaqa eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlarini ekonometrik baholash // Innovations in Science and Technologies. 2025. № 6. B. 580-587.
8. Nosirova N.J. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyati tahlili // Ilmiy-amaliy konferensiya tezislari to'plami. 2024. B. 47-50.
9. Mo'minova K.Y. Kichik biznesni rivojlantirish yo'llari // "Yoshlar va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2024.
10. Sultanova G. Trends in development and diversification of exports of the Republic of Uzbekistan // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. 2024. X son. B. 232-249.
11. Baron G., Thiel D. Small Business Internationalization and Exporting: A Global Perspective. New York: Routledge, 2017.
12. OECD. Small and Medium-sized Enterprises (SMEs) and Their Role in the Global Economy. Paris: OECD Publishing, 2018.
13. Abduqahhorov A. Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirish. Toshkent: Iqtisodiyot va biznes nashri, 2020.
14. Sabirov Kh., Akbarova A. Strategy for the development of free economic zones in Uzbekistan // Qo'qon universiteti xabarnomasi. 2023. № 9. B. 7-10.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>